

DOI: 10.5281/zenodo.15770717

Link: <https://zenodo.org/records/15770717>

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURINING O'RNI

Amonova Aziza Saydulloyevna

Navoiy davlat universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi

1-bosqich magistranti

e-mail: amonova0929@gmail.com

Tel: +998944837454

Annotatsiya: Ushbu maqolada PIRLS xalqaro baholash dasturining o'rni, ta'lim sifatini oshirishdagi roli haqida so'z boradi. PIRLS dasturi boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. PIRLS xalqaro baholash dasturining ta'lim sifatini oshirishdagi amaliy natijalari xususida qayd etilgan. Shuningdek, o'quvchilarning bilim darajasidagi nuqsonlar hamda muammolar haqida batafsil bayon etilgan. Tadqiqot ko'rsatkichlari davlatning ta'lim sifati, uning xalqaro standartlarni mezon asosida xalqaro miqyosda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi. PIRLSdan olingan natijalar va tajribalar xususida ham fikr-mulohazalar bildirilgan

Kalit so'zlar: PIRLS, ePIRLS, ta'lim, o'qish savodxonligi, o'quv dastur, test, baholash

I. KIRISH

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir. Ushbu dasturning ko'p yillar davomida muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotganiga 2021-yilda 20 yil to'ldi. Ta'lim tizimining sifatini oshirish, har bir davlatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ta'lim sifatini baholash va uni takomillashtirish jarayonida xalqaro baholash dasturlari, jumladan, PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) dasturi alohida o'rin tutadi. Ushbu maqolada PIRLS dasturining ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi.

II. ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

PIRLS – PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study - xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) – bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi-yoshlarning matnini o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir.¹ Boshqacha qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilash uchun ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga oid

¹ Amonova A.S. // O'quvchilar savodxonligini baholashda xalqaro baholash dasturlari // Uslubiy qo'llanma. – T: “Fan ziyosi” nashriyoti, 2023. 80 bet.

ma'lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir. Shuningdek, PIRLS, yosh o'quvchilar tomonidan maktabda va maktabdan tashqarida ta'lim olishning katta qismini tashkil etuvchi, ya'ni badiiy tajriba orttirish, ma'lumot olish va undan foydalanish ko'nikmalarini baholash kabi ikkita keng qamrovli maqsadlarni ifodalaydi.

PIRLS dasturining maqsadi va vazifalari

PIRLS dasturi, asosan, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning o'qish saviyasini baholashga qaratilgan. Bu dastur orqali o'quvchilarning o'qish qobiliyatlari, ularning matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalari o'rganiladi. PIRLS tadqiqotlari o'quvchilarning o'qishdagi muvaffaqiyatlarini baholash bilan birga, ta'lim tizimlarining samaradorligini aniqlashga yordam beradi.

Ta'lim sifatini baholashda PIRLSning roli

PIRLS dasturi, o'z ichiga olgan xalqaro tadqiqotlar orqali, mamlakatlarning ta'lim tizimlarini solishtirish imkonini beradi. Bu esa:

- Ma'lumotlarni taqdim etish: PIRLS natijalari orqali mamlakatlar o'rtasida ta'lim sifatini solishtirish va tajribalarni almashish imkoniyatini yaratadi.
- Tahlil va takliflar: Olingan ma'lumotlar asosida ta'lim tizimlaridagi zaif tomonlar aniqlanadi va ularni yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.
- Siyosat ishlab chiqish: Ta'lim sohasidagi siyosatchilar va menejerlar uchun aniq statistik ma'lumotlar taqdim etilishi, ta'lim siyosatini takomillashtirishga yordam beradi.²

Ta'lim sifatini oshirishda amaliy natijalar

PIRLS dasturidan olingan natijalar ko'plab mamlakatlarda ta'lim sifatini oshirishga yordam berdi. Masalan:

- O'qituvchilarni tayyorlash: Dastur natijalari asosida o'qituvchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha yangi dasturlar ishlab chiqildi;
- O'quv dasturlarini yangilash: O'quv dasturlarining samaradorligini oshirish uchun yangi metodologiyalar va materiallar joriy etildi;
- O'quv muhitini yaxshilash: O'quvchilarning o'qish jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun maktab muhitida ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi.³

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlarni ta'lim tizimimizga joriy etish hamda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish ta'lim-tarbiya jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Ta'lim tizimida ham yuqori natijalarga erishish uchun, albatta, raqamlashtirilgan formatdagi mahsulotlardan foydalanish kerak. Raqamli texnologiyalar ta'lim sohasida ko'plab ijobiy natijalar berishini xalqaro tajribalardan ham ko'rib turibmiz. Ta'lim tizimiga tadbiiq etilayotgan zamonaviy texnologiyalar avvalo, ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilishi kerak. Xuddi shundek, PIRLS dasturining ePIRLS tadqiqotiga almashtirilganli ijobiy natijalar bermoqda. Bundan ko'zlangan maqsad kompyuter yordamida baholashning afzalliklaridan foydalanish bo'lib, bu o'z navbatida, qo'llash va mulohaza yuritish mazmun sohalarida baholashning yangi va

² Amonova A. International on the assessment of the quality of education in the public education system normative for the introduction of studies (PISA, TIMSS, PIRLS) legal grounds. Neo Scientific Peer Reviewed Journal. Volume 14, September, 2023. 24-27 betlar.

³ Mullis I.V.S. Martin M.O. Goh P., Kelly D.L., Fishbein B. TIMSS 2019 International Results in Mathematics and Science. Retrieved from Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center.2019.606 B

takomillashtirilgan metodlarni yaratilishiga olib keladi.⁴ U ham real tarzda elektron matnlarni o‘qish tajribasini sinovdan o‘tkazishga mo‘ljallangani bois, mazkur dastur boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matni o‘qib tushunish darajasi va ma‘lum muddat ichida bajariladigan baholash topshirig‘iga mos kompyuter yordamida topshiriladigan sinov muhiti hisoblanadi.

III. MUHOKAMA VA NATIJA

O‘zbekistonga ta‘lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida qatnashish milliy ta‘lim tizimini isloh qilish, ta‘lim mazmunini, pedagog xodimlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda muhim ilmiy-metodik yangiliklarni beradi. Tadqiqot ko‘rsatkichlari davlatning ta‘lim sifati, uning xalqaro standartlarni mezoni asosida xalqaro miqyosda egallagan o‘rni to‘g‘risida xulosalar chiqarish imkonini beradi. Shuningdek, xalqaro tadqiqotlar davlatning milliy tadqiqotlarni o‘tkazishga hamda milliy baholash tizimini yaratishga samarali ta‘sir ko‘rsatadi. Mamlakatimizdagi ta‘lim sohasidagi yetakchi mutaxassislarni jamlagan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o‘tkazish madaniyati rivojlanadi va bu narsa ta‘lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi.⁵ Ta‘lim jarayonida qo‘llanilayotgan darsliklarning zamon talablari asosida qayta ishlab chiqilishiga ham ijobiy hissa qo‘shyapti. Shularni e‘tiborga olgan holda, mamlakatimizda yuqoridagi tadqiqot dasturlarini o‘tkazish va tayyorlanish bir qator muammo va vazifalarni keltirib chiqaradi. Mazkur holatda ta‘lim tizimi xodimlari oldida turgan asosiy muammolar quyidagilarda ko‘rinadi:

1. O‘quvchilarning bilim darajasidagi nuqsonlar. 1035 ta maktabda o‘tkazilgan monitoring natijalariga ko‘ra o‘quvchilarning o‘rtacha o‘zlashtirish darajasi 70 foizni, sifat ko‘rsatkichi 44, 8 foizni tashkil etgan, xolos. Matematika fanidan esa bu ko‘rsatkich yanada past ekanligi aniqlangan.

O‘qish ko‘nikmalari bo‘yicha solishtirilganda, O‘zbekistonlik o‘quvchilar ochiq aytilgan ma‘lumotni topish va talqin qilish ko‘nikmalari bo‘yicha yuqoriroq natija (441 ball) qayd etishgan. Nisbatan yuqoriroq darajadagi ko‘nikma hisoblanuvchi talqin qilish, integratsiya (ma‘lumotlarni birlashtirish) va baho berish ko‘nikmalari bo‘yicha esa sezilarli past natija (430 ball) qayd qilingan. Umuman olganda, jami 15 davlat, shu jumladan, AQSh, Shimoliy Irlandiya, Avstraliya, Gruziya, Irlandiya, Latviya o‘quvchilari yuqori darajadagi o‘qish ko‘nikmalari bo‘yicha balandroq natijalarni qayd qilishgan.⁶ Tadqiqot o‘quvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishi ularning o‘qish natijalariga ta‘sir qilishini ko‘rsatgan. O‘zbekistonda ham yuqori, o‘rtacha va quyi ijtimoiy-iqtisodiy statusga ega oilalar farzandlarining natijalari o‘rtasida sezilarli farq

⁴ Qorayev S.B., Allayorova S.B. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini PIRLS xalqaro baholash dasturi tizimiga tayyorlash jarayonini takomillashtirish masalalari. Academic research in educational sciences volume 2 | ISSUE 2 | 2021. ISSN: 2181-1385. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 / DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00217. 443-448-b.

⁵ Qayumova Sh. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini timss xalqaro baholash dasturi asosida o‘qitish metodik tayyorgarligini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Guliston – 2022.

⁶ Qurbonova M.F. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish kompetensiyalarini mustaqil ishlar jarayonida shakllantirish metodikasi (PIRLS xalqaro baholash dasturi talablari asosida) Avtoref. diss. Chirchiq. 2021. – 12 b.

kuzatilgan. Shuningdek, boyroq oilalarning farzandlari ulushi ko‘proq bo‘lgan maktablarda o‘quvchilar nisbatan yuqoriroq natijalar qayd etishi aniqlangan. Ishtirok etishdagi qiyinchiliklar va mavzuning qamrab olinishi o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash uchun PIRLS xalqaro tadqiqoti kabi keng miqyosda o‘tkaziladigan xalqaro baholash jarayonlarida odatda turlicha test shakllaridan (baholash daftaridan) foydalaniladi.⁷ Mamlakat darajasidagi guruhlariga ajratib moslashtirilgan baholash modeli bunday baholash jarayonlarida yuzaga keladigan turli darajadagi qobiliyatga ega o‘quvchilarni nisbatan to‘liq qamrab olish maqsadida tuzilgan baholash daftarlaridan sinov tariqasida foydalanish orqali mazkur metod imkoniyatlarini kengaytiradi.

PIRLS dasturining ta‘lim sifatini oshirishdagi o‘rni:

1. O‘qish ko‘nikmalarini baholash: PIRLS dasturi o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini turli darajada baholaydi, bu esa ta‘lim tizimining samaradorligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

2. Taqqoslash imkoniyatlari: Dastur dunyoning turli mamlakatlaridagi ta‘lim tizimlarini taqqoslash imkonini beradi. Bu ta‘lim sifatini oshirish uchun eng yaxshi amaliyotlarni o‘rganishga yordam beradi.

3. Ma‘lumotlar va tahlil: PIRLS tadqiqoti natijalari keng qamrovli ma‘lumotlar va tahlil qilish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu ma‘lumotlar ta‘lim siyosatchilari, o‘qituvchilar va maktab rahbarlari uchun foydali bo‘lishi mumkin.⁸

4. Ta‘lim strategiyalarini rivojlantirish: Olingan natijalar asosida ta‘lim strategiyalarini takomillashtirish, yangi metodologiyalarni joriy etish va mavjud muammolarni hal qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

5. O‘quvchilarning ehtiyojlarini aniqlash: PIRLS dasturi orqali o‘quvchilarning o‘qishdagi qiyinchiliklari va ehtiyojlari aniqlanadi, bu esa individual yondashuvlarni ishlab chiqishga imkon beradi.

6. Ota-onalar va jamoatchilikni jalb qilish: Tadqiqot natijalari ota-onalar va jamoatchilikni ta‘lim jarayoniga jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular ta‘lim sifatini oshirishda hamkorlik qilishlari kerak.⁹

IV. XULOSA

PIRLS xalqaro baholash dasturi ta‘lim sifatini oshirishda muhim vosita bo‘lib, u nafaqat o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini baholaydi, balki ta‘lim tizimining samaradorligini oshirish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni ham taqdim etadi. Ushbu dastur orqali mamlakatlar o‘z tajribalarini baham ko‘rishlari va eng yaxshi amaliyotlarni o‘rganishlari mumkin. PIRLS xalqaro baholash dasturi ta‘lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. U nafaqat o‘quvchilarning o‘qish qobiliyatlarini baholaydi, balki mamlakatlarga ta‘lim tizimlarini takomillashtirish uchun zaruriy ma‘lumotlarni taqdim etadi. Ta‘lim sifatini oshirish jarayonida PIRLSdan olingan

⁷ Rabbonayeva D. PIRLS tadqiqotlari uchun topshiriqlar to‘plami. O‘quv-uslubiy qo‘llanma (1-qism). – Samarqand: XTXQTUMOHM, 2019. – 64 bet.

⁸ Radjiyev A.B., A.A.Ismailov, J.R.Narziyev, X.P.Tog‘ayeva, “O‘quvchilar savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi”, Qo‘llanma, 2019-yil

⁹ “Таълимдаги халқаро тадқиқотларнинг Янги Ўзбекистон тараққиётидаги ўрни” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами. – Т.: Таълим сифатини баҳолаш бўйича халқаро тадқиқотларни амалга ошириш миллий маркази, 2022. – 274 б.

tajribalar va natijalar, kelajakda ta'lim sohasida yanada samarali strategiyalar ishlab chiqishga yordam beradi. Shunday qilib, PIRLS dasturi orqali ta'lim sifatini oshirish, har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi.

V.FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Amonova A.S. // O'quvchilar savodxonligini baholashda xalqaro baholash dasturlari // Uslubiy qo'llanma. – T: “Fan ziyosi” nashriyoti, 2023. 80 bet.

2. Amonova A. International on the assessment of the quality of education in the public education system normative for the introduction of studies (PISA, TIMSS, PIRLS) legal grounds. Neo Scientific Peer Reviewed Journal. Volume 14, September, 2023. 24-27 betlar.

3. Mullis I.V.S. Martin M.O. Goh P., Kelly D.L., Fishbein B. TIMSS 2019 International Results in Mathematics and Science. Retrieved from Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center. 2019.606 B

4. Qorayev S.B., Allayorova S.B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS xalqaro baholash dasturi tizimiga tayyorlash jarayonini takomillashtirish masalalari. Academic research in educational sciences volume 2 | ISSUE 2 | 2021. ISSN: 2181-1385. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 / DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00217. 443-448-b.

5. Qayumova Sh. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini timss xalqaro baholash dasturi asosida o'qitish metodik tayyorgarligini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Guliston – 2022.

6. Qurbonova M.F. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish kompetensiyalarini mustaqil ishlar jarayonida shakllantirish metodikasi (PIRLS xalqaro baholash dasturi talablari asosida) Avtoref. diss. Chirchiq. 2021. – 12 b.

7. Rabbonayeva D. PIRLS tadqiqotlari uchun topshiriqlar to'plami. O'quv-uslubiy qo'llanma (1-qism). – Samarqand: XTXQTUMOHM, 2019. – 64 bet.

8. Radjiyev A.B, A.A.Ismailov, J.R.Narziyev, X.P.Tog'ayeva, “O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi”, Qo'llanma, 2019-yil.

9. “Таълимдаги халқаро тадқиқотларнинг Янги Ўзбекистон тараққиётидаги ўрни” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами. – Т.: Таълим сифатини баҳолаш бўйича халқаро тадқиқотларни амалга ошириш миллий маркази, 2022. – 274 б.